

ABDULLA AVLONIYNING ASARLARIDAGI PEDAGOGIK G'OYALARI

Soxibov Hasan Tolibjon o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Xorijiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

Buyuk mutaffakkir Abdulla Avloniy “Tarbiya - biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”, deb bejiz aytmagan. Asrimiz boshida jadidchilik harakatining bosh g'oyasi bo'lmish bu komillik hozirgi istiqlol davrida ham, uning buyuk kelajagida ham dasturiamal bo'lib qolishi tabiiy. Shu ma'noda ta'lim tarbiya tizimining zamonaviy tub islohotlari mazmun mundariyasi, maqsad va falsafasi o'sha buyuk ma'rifiy ko'tarilish - jadidchilik harakatining uzviy bevosita ijodiy davomi, deyish mantiqan adolatlidir. Chunonchi, yoshlarni ilm marifatli, ziyoli, vatani, xalqiga fidokor, bir so'z bilan aytganda - komil inson qilib tarbiyalash har bir davrning bosh ustuvor maqsadlaridan bo'lib qoladi. Buni o'tgan asrlar namunasida ko'rishimiz mumkin. Jadidchilik harakatidagi ma'naviyat qo'yidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

Birinchidan, ular ozodlikka mutaqqillikka qon to'kislarga olib keluvchi turli to'polon, qirg'in-barot urushlar bilan emas, balki aholining savodini chiqarish, ularning ma'rifatini ko'tarish orqali qaramlikning kelib chiqishi, uning millat taqdiridagi oqibatlarini tushunib etish darajasiga ko'tarish orqali erishishni;

Ikkinchidan, milliy ongni rivojlantirish, milliy birlikni ta'minlashning asosiy omili ekanligini, milliy birlikning vujudga kelishi esa uni taraqqiyotga olib boruvchi asosiy omili ekanligi g'oyasida;

Uchinchidan, jadidchilik harakati namoyondalari faqat o'z g'oyalari ilgani surish, uni tashviqot qilish doirasida cheklanib qolmasdan, ular aholining umumiy savodxonligini ko'tarish borasida ko'pgina ishlarni ham amalga oshirdilar. Ular o'zlarining mablag'lari hisobiga maktab ochdilar, gazeta, kitoblarni bosmadan chiqardilar. Bu harakatlarning zaminida chinakkam ma'naviyat turadi. Chunki ular urushlarga, johilikka va qarama-qarshiliklarni avj oldirishga emas, balki yuksak ma'naviyatga va siyosiy onglikka erishish orqali ozodlik va taraqqiyotga erishish mumkinligi uchun faoliyat ko'rsatganlar. Ana shu jihatlari bilan jadidchilik harakati milliy ma'naviyatimiz rivojiga o'ziga xos o'ringa egadir.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.
3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida jadidchilik g'oyalari yorqin vakillaridan Abdulla Avloniy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori, Fayzulla Xo'jaev va boshqalar g'oyat og'ir sharoitlarda targ'ib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr qimmatini yerga urishga yo'l qo'ymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Abdulla Avloniy, Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o'zlari dars berar, o'quv qo'llanmalari yozar, nashr etar va bu yo'lda jonbozlik ko'rsatar edilar. Buyuk jadidchi olimlarimiz xalqimizni ma'rifatli,

ilmli, ziyoli bo'lishi uchun joni ham, ilmini ham, mablag'ini ham ayamaganlar. Bugun biz siz bilan mana shunday ma'rifatparvar jadidchilarimizdan bo'lmish Abdulla Avloniy haqida so'z yuritamiz.

Avdulla Avloniy millatni ilmli qilish yo'lida, ma'rifatga chorlash maqsadida nafaqat darsliklar, kitoblar yozgan balki, dramaturgiya yo'nalishida ham barakali ijod qilgan. Uning "Biz va siz", "Pinak", "Advokatlik osonmi" va boshqa dramatik asarlari xalqimiz orasida juda mashhur sevib o'qiladi va tomosha qilinib kelinmoqda. Uning har bir asarida xoh u she'r bo'lsin, xoh sahna asari va yoki nasrda ijod qilsin barchasida millat haqida qayg'urish, odamlarni ma'rifatli, ilmli, ziyoli qilish va shu asosida xalqni yorug'likka olib chiqish maqsadi yotibdi. Uning "Biz va siz" dramasida ham insonlarning marifatsizligi, ilmsizligi tufayli ikki insonning o'limiga sabab bo'lgani juda ta'sirli ko'rsatilgan. Ushbu asar turkiston turmushidan olib yozilgan 4 pardali asar bo'lib, birinchi parda ota-onaning ilmsiz bo'lishiga qaramay boy bodavlat xonadonning qizini o'qigan, ilmli o'g'illariga olib berishdan boshlanadi. Bosh qahramon Kamol ismli 25 yoshdagi yigit bo'lib, Ovro'pada o'qib kelgan. Yangicha fikrli, ilmli, ziyoli yigit edi. O'qishdan qaytgandan so'ng ota-ona uni uylantirib qo'yish harakatiga tushishdi. Otasi o'ziga to'q, Karimboy ismli boy-badavlat kishi edi. O'ziga to'q bo'lishiga qaramay eskicha fikrli, ilmsiz kishi. Onasi Jamol ham eskicha fikrli, marifatdan yiroq 45 yoshlardagi ayol edi. Kamol ota-onasi topgan qizga uylanishni xoxlamaydi. Chunki u Ovrupada o'qib yurgan vaqtida tarbiya ko'rgan oilalar ichida madaniy turmushga o'rganib, odat qilib qolgan edi. Endi bu yerga kelib, bu xurofotga botgan, churig'on turmush ichida o'ralib qoladi. Uning niyati o'ziga o'xshagan ilmli, marifatli qizga uylanib, kelajakda farzandlarining tarbiyasida ayol o'rni ernikidan ustun ekanligini, jamiyatda ayol kishi erkak kishidan kam emasligini, balki juda muhim ekanligini tushungani uchun ayol-u erkakni birdek ilmli va ma'rifatli bo'lishini istardi.

"Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azm-u shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz" Shavkat Mirziyoyev.

Abdulla Avloniyga ehtirom: Bugungi kunda Abdulla Avloniy nomidagi ilmiy tekshirish instituti tashkil etilgan bo'lib, uning birlamchi vazifasi pedagog kadrlarning salohiyatini aniqlash va o'stirish. Bundan tashqari Avloniy yod etish maqsadida poytaxtimizdagi adiblar xiyobonida Abdulla Avloniy haykali qad rostlagan. Ko'cha va xiyobonlarga uning nomi berilishi ham Avloniy xotirasiga bo'lgan cheksiz hurmatning yorqin namunasidir. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan 2020-yilda Avloniy nomidagi ko'krak nishon va stipendiya ta'sis etildi. Bu iqtidorli, salohiyatli va har jabhada bilimli, tashabbuskor yoshga bir so'z bilan aytganda haqiqiy Avloniy izdoshlariga beriladi.

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda "Qachonki, ta'lim tarbiya haqida gap ketganda albatta ko'z oldimizga buyuk ma'rifatparvar, jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi Abdulla Avloniy keladi. Avloniy haqida qanch agapirsak oz. Uning asarlarini o'rganar ekanmiz o'zimiz uchun katta bir xazinaga ega bo'lamiz. Bugungi kunda o'sib kelayotgan avlodni Avloniy asarlari orqali tarbiyalasak men o'ylanmanki, ajdodlariga munosib, ilmli, komil kishilar bo'lib ulg'ayishadi" Ijtimoiy pedagogik g'oyalar va nazariyalarning shakllanishida

SHarq uyg'onishi davri olimlarining asarlari beqiyos o'ringa ega. Ular faoliyatining mohiyati shuki avval mavjud bo'lgan o'sha davrni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asoslangan tizimi asosida to'planganligidadir. yetuk olimlarning faoliyat xarakteri-ilm bilan mashg'ul bo'lish ijtimoiy pedagogik qarashlarning mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Al-Xorazmiy (783-850 y)ning asarlari yorqin didaktik xarakterga egadir. U savol-javob metodi orqali bilimlar qo'lga kiritilishini bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kiritilishini, jamiyatning faola'zosiga aylanishini ta'kidlagan.

Al-Xorazmiy-Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek-kabi olimlar o'z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarini o'sib kelayotgan avlodga qaratish g'oyasini tushunishgan va buni tadbiiq etishgan. Bu avvalambor ular ta'limning maqsadi hayotga tayyorlash, axloqiy norma va qoidalar, kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo'lishida deb bilganliklarida namoyon bo'lgan. Buyuk matematik olim Abu Rayxon Beruniy (973-1050 y) ta'lim jarayoniga qo'llaniladigan ilmiy usullarni ishlab chiqqan. U shuningdek ta'lim tamoyillarini ham tasniflagan. Uning pedagogik qarashlarining ijtimoiy yo'naltirilishi u axloqni ijtimoiy xususiyatlar va hissiyotlarning ifodasi sifatida tushunganligida o'z ifodasini topgan. Olimning tarbiya, shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi amaliy hayot uchun ilm va mehnatning ahamiyati haqidagi g'oyalari hozirgacha muhimligini saqlab qolgan. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino (980-1037 y) o'z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan. Uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar mavjud. Biz uning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrof muhit ta'siri, axloqiy va mehnat tarbiyasi, muomala san'ati, bolalarni jamoada o'qitish haqidagi g'oyalari muhim hisoblanadi. Forobiy, ibn Sino, Beruniy ta'lim muammolari bo'yicha bir xil fikrlar bildirgan va insonning jamiyatga sarmahsul xizmat qilishi uchun o'z aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat qobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi ta'lim vazifasini ajratib ko'rsatganlar. Ta'limning rivojlantiruvchi vazifasini amalga oshirish maqsadida ular quyidagi didaktik tamoyillardan foydalanishni maslahat berganlar:

- asta-sekin tushunchalarning murakkablashuvi;
- amaliyotni tajriba bilan bog'lash;
- qabul qila olishlik;
- ko'rgazmalilik.

Ibn Sinoning fikricha ijtimoiylashtirish ko'nikmalari jamoa bo'lib o'qitish shaklida yaxshi shakllanadi. Buning uchun u quyidagilarga asoslanishi lozim:

1. Ta'lim oluvchilar, o'qituvchi va o'quvchilar orasida tajriba, bilim, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar almashinuvini tashkil qilish.
2. Musobaqalashuv elementidan foydalanish.
3. O'quvchining ijtimoiy axloqiy xususiyatlarini-muomala, o'zaro tushunish, o'zaro yordam, do'stlik hissini rivojlantirish.

Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganligi, ularning avvalambor hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta'lim maqsadini sharhlashlarida o'z ifodasini topgan. SHaxsning jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishini ta'minlab beruvchi eng muhim xususiyatlar deb, ular mehribonlik, yaqinlarga yordam, g'urur, vijdon, yaxshi niyatlilik, sabrni bilishgan. O'quvchilarning har tomonlama intellektual va mehnat tayyorgarliklariga katta e'tibor qaratib, Forobiy va ibn Sino yoshlarning jamiyatga

“kirish”larining eng muhim omillari sifatida, faollik, mustaqil tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik, ijodiy qobiliyatni hisoblashgan.

Ijtimoiy tarbiyada o'qituvchiga yetakchi o'rin ajratib, Forobiy uning faoliyatini, jamiyatning kelajagi unga bog'liq bo'lgan hukmdor faoliyatiga qiyoslaydi. Forobiy ham ibn Sino kabi pedagog o'quvchilarning bilimlarini hayotga tadbiiq etishlariga e'tibor berish lozimligiga ishora qilgan.

Qomusiy olimlar shaxsiy namunaga nihoyatda katta e'tibor berishgan hamda o'zlari ham intiluvchanlik, yuqori ijtimoiy mavqe'ga erishganlik namunasi bo'lib xizmat qilishgan. Forobiy nihoyatda mehnatsevar, irodali, kamtar, sodda bo'lgan va doim yordamga intilgan. Forobiyning o'quvchilarning individual psixologik va aqliy xususiyatlariga mos tushuvchi ta'limni usuli, kasb tanlash muhimligi haqidagi fikrlari hozir ham katta ahamiyatga ega.

O'rta Osiyo olimlari tomonidan tarbiya va ta'limning ijtimoiy o'rnini tushunishlari shunda namoyon bo'ldiki, ular ijtimoiylashuvining mikroomillar-muhit, oila, o'quvchilar guruhiga e'tibor karatganlar va ota-onalar, pedagog va o'quvchining harakatlarini mujassamlashtirishni maslahat berganlar.

Shunday qilib, o'rta asr olimlari ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganlikka ega katta pedagogik meros qoldirganlar. Ularning ilmiy pedagogik asarlari zamonaviy ijtimoiy pedagogika ilmining rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1) Shavkat Mirziyoyev “Yangi o'zbekiston strategiyasi”
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Toshkent 2020.
- 3) Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar”
- 4) Abdulla Avloniy “Turkiy guliton yoxud axloq” 1967-yil “O'qituvchi” nashriyoti.
33. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. *Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences*, 4(5), 42-47.
5. Sattarovich, A. U. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ASOSIY TAMOILLARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(20), 232-234.
6. Abdusalomov, U. S., & Boltaboyev, A. (2020). GENERAL CHARACTERISTICS OF THE MILITARY COMMITTEES OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Экономика и социум*, (12 (79)), 10-13.
7. Abdusalomov, U. S. (2023). DEFENDING THE MOTHERLAND IS THE OBLIGATION OF EVERY CHILD. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(1), 6-9.
8. Sattarovich, A. U. (2022). We Should Follow the Example of Our Ancestors in Patriotism. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 6, 24-26.
9. Sattarovich, A. U. (2023). HARBIYLARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 1(12), 96-100.

10. Sattarovich, A. U. B. (2022). «HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI». Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 90-97.

11. Абдусаломов, У. С. (2023). ЗАЩИЩАТЬ РОДИНУ-ОБЯЗАННОСТЬ КАЖДОГО РЕБЕНКА. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 5(5), 13-17.